

**TARBIYASI OG'IR BOLALARNI IJTIMOYILASHTIRISHDA OILA VA MAKTAB
HAMKORLIGI ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH****Sh.U. Kamolova***Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy psixologiya kafedrası katta
o'qituvchisi***D.V. Xolmatova***pedagogika va psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistri*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib, Tarbiyasi og'ir bolalarni ijtimoiylashtirishda oila va maktab hamkorligi ishlarini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy nazariy adabiyotlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, ta'lim, tarbiyasi og'ir bolalar, oila, odob-axloq, maktab, mahalla, hamkorlik, pedagogik psixologik, xulq – atvor.*

Mamlakatimizda o'quvchi-yoshlarning ma'naviy qiyofasiga tarbiyasi hamda ijtimoiylashuv jarayonlariga nisbatan alohida e'tibor qaratilgan. Buni amalga oshirishda esa ta'lim muassasalari va oilaning o'rni beqiyos. Ushbu masalada muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev quyidagilarni qayd etadi: «Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq.

Mamlakatimizda o'quvchi-yoshlarda odob-axloq normalarini shakllantirishda oila, maktab va mahalla hamkorlik ishlarini shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Tarbiya o'chog'i hisoblangan oila va maktab hamkorligida tarbiyasi og'ir bolalarni ijtimoiylashtirish shuningdek, ularni real hayotga qaytarishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Tarbiya jarayoni bolaga ona qornidanoq olib borilishi zarur. Milliy tushunchasi shakllangan va ma'naviyati yuksak darajada bo'lgan yosh avlod hech qachon yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaydi va buning oqibatida tarbiyasi og'ir bolalar safiga kirib qolmaydi. Bu mas'uliyatli vazifa esa biz bo'lajak o'qituvchilar va ota-onalarga yuklanadi. Har bir jamiyat o'zining ijtimoiy iqtisodiy ravnaqi uchun rivojlangan, mas'uliyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan manfaatdordir.

Tarbiyasi og'ir bolalar – bular tarbiyada e'tibordan chetda qolgan, o'z holicha tashlab qo'yilgan bolalardir. Ular qayerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, tarbiyalashda ularga individual yondosha bilmaslik oqibatida paydo bo'lgan. Boshqacha aytganda, normal ta'lim va tarbiya jarayonidan chetda qolgan, o'qituvchilar, ota-onalar, o'rtoqlari bilan normal munosabat o'rnatolmagan, qalb tug'yonlarini oshkor etishning to'g'ri yo'llarini topa bilmagan bolalar – tarbiyasi og'ir bolalar turiga kiradi. Bunday bolalarni o'z vaqtida payqab, ular bilan yaxshi ish

olib borilmasa, ularga jamoatchilik ta'siri o'tkazilmasa, noxush ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lishi mumkin.

“Tarbiyasi og‘ir” bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S Vigotskiy fikricha, “og‘ir” o‘smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma‘lum bir qismi intizomsiz, qo‘pol bolalardir. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o‘zgartirish, ularga ba‘zi huquqlarini berish yo‘li bilan ularga ta‘sir o‘tkazish mumkin. Shuni aytish lozimki, “tarbiyasi og‘ir“ bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o‘qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir.

Tarbiya jarayoning samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar tarbiyali bo‘lim – bu xulq – atvorini nazorat qilishdan iboratdir: Bunday nazorat inson yomon xatti-harakatlarini bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyli haqida qayg‘ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo‘ladi. Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvini o‘rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi: Bola o‘zini egosentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag‘batlantirilishi kerak?

Tarbiya o‘z muhitiga ko‘ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishdir. Agar ta‘lim shaxsning ongini shakllantirish bo‘lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta‘sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga g‘amxo‘rlik qiladigan ota-onasiga bog‘lanib qoladilar.

Ota-onaning oldida bo‘lish, ular bilan muloqotda bo‘lish bolalarga juda yoqadi, ulaning yo‘qligi bolalarga yoqmaydi. Ota-onaning g‘amxorligini bildiradigan so‘zlar xatti-harakatlar bola uchun juda kata ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o‘rganish jarayoni orqali sodir bo‘lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g‘amxo‘rlik va e‘tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo‘llab-quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorlarni rag‘batlantirish va yomon xulq-atvor hamma bolalarga ham taalluqli emas.

Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an‘ana va urf-odatlarining roli katta. Tarbiya jarayonida g‘amxorlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g‘amxor ota-onalarga ko‘proq taqlid qiladilar. G‘amxo‘r ota-onalar bolalarning salbiy xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlamaganda bola o‘z xatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi.

A.S.Makarenko ta‘kidlaganidek, tarbiyasi og‘ir bola binoyidek bola bo‘lib, uning rivojlanishi umumiy qonunlarga bo‘ysunadi, bu rivojlanishdagi ayrim buzilishlarning sabablarini oiladagi va bolalar bog‘chasida maktabdagi turmush sharoitlaridan va tarbiya xatolaridan izlash kerak. Bugungi kunda bolalar orasida tarbiyasi og‘ir bolalar yo‘q deb ayta olamizmi? Tarbiyasi og‘ir bolalarning yurish-turishida qanday o‘ziga xos xususiyatlar bor, ular yurish-turishdagi qaysi belgilari bilan boshqa bolalardan farq qiladi.

Pedagogikada bu masalani o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Biror bolaning tarbiyasi og'irmi yoki bunday emasmi haqiqatda mulohaza yuritish uchun asosan bo'ladigan belgi uning pedagogik ta'sirining umumiy vositalarini tan olmasligidir. Bola tarbiyachining oddiy taklif, talablariga quloq solmaydi. O'jarlik qiladi.

Kichik maktab yoshidagi tarbiyasi og'ir bolaning tengdoshlari bilan munosabatlarning yaxshi emasligi, bolalar bilan tez-tez janjanlashib turishi yana bir muhim belgidir. Bu narsa boshqa bolalar uchun yoqimsiz qiliqlar, bolalar o'yinlariga halaqit beradi, qurgan uychalarni buzadi urushqoqlikda, yurish-turish qoidalarini buzishda namoyon bo'ladi. Boshqa hollarda tarbiyasi og'ir bolalar tengdoshlari bilan gaplashmaydilar, umumiy o'yinlarga qatnashmaydilar, yakka holda o'ynashni afzal ko'radilar. Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ish olib borish ommaviy so'rovnoma va anketa to'ldirish bilan amalga oshiriladi. Bu usullar pedagogik qarovsiz o'smirlar guruhlarning qayerda paydo bo'lganligi haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

Tarbiyasi og'ir o'smirlar ish olib borishda pedagog quyidagi parametrlarni inobatga olishi lozim: guruh hajmi, ularning yosh va ijtimoiy tarkibi, muomala qilish joylari va vaqti, guruh faoliyatining mazmuni va yo'nalishi. Muomalaning bu parametrlarini bilish tarbiyachiga tuman, shaharda o'smir guruhlari bilan ishlashning eng to'g'ri va samarali shakl-vositalarini qo'llashga yordam beradi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hali ham ayrim ota-onalar bolalar tarbiyasi va ularning kelajaklari haqida zamon talabi darajasida tarbiyaviy mas'uliyatni his qilmayaptilar. Ota-onalar bilan suhbatlashish natijasida shu narsa aniqlandiki, ular farzandlari 15-16 yoshga yetgandagina o'g'lim yoki qizim yuqori sinfda o'qimoqda. Kelajakda qayerga yuborsam ekan? Qayerda o'qitsam ekan?" degan fikrga boradilar. Imkoni boricha, tanish-bilish orqali o'zlari uchun ma'qul dargohga o'qishga yoki ishga joylashtirmoqchi bo'ladilar.

Ular bolalarining qobiliyatiga ham, qiziqishiga ham, xohishiga ham e'tibor bermaydilar. Bunday holat ota-onalarning tarbiya masalasida aniq maqsad va dasturlari yo'qligi oqibatida sodir bo'ladi. O'rni kelganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayrim maktab o'qituvchilari orasida o'z ishiga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'luvchi shaxslar ham yo'q emas. Ularning eng yomon xatolaridan biri tarbiyaga oid barcha kamchiliklarni ota-onalar zimmasiga yuklab qo'yib, o'zlari esa kuzatuvchi bo'lib qolishlaridir.

O'qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta'minlay olmaydi. Bu o'rinda tarbiyachining o'zini tarbiyalash lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O'ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va harakat qilish, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo'yish uchun ma'naviy huquqqa ega bo'ladi.

Ayrim maktablarida ota-onalarni ma'lum guruhlarga bo'lib majlislarga chaqirish joriy etilmoqda. Masalan, yosh va kam tajribali oilalarni alohida, noto'liq oilalami, ko'p

bolali oilalarni alohida-alohida chaqirib, ular bilan ishlash yoʻllari belgilanmoqda. Baʼzan ota-onalar bolalarining “Uy vazifalariga yordam berish kerakmi?” degan savolni berishadi. Bunga dafatan “Ha” yoki “yoʻq” deb javob berish ham nooʻrin.

Gap shundaki, uyga berilgan topshiriqlar bolalarning mustaqil ishlari boʻlib, ularning fikrlash faolligini taʼminlashni maqsad qilib qoʻyadi. Oʻquvchilarning u yoki bu oʻquv materiallari bilan amalda tanishishlari, tegishli xulosa chiqarishlari nazarda tutiladi. Shu sababli uy vazifalarini bolalarining ishtirokisiz oʻzlari yechib bermasdan, balki uni yechishda tarbiyaviy rahbarlik qilishlari, fikrlash uchun imkoniyat yaratishlari lozim.

Baʼzan shunday holatlar uchraydiki, ota-onalar bolalarini oʻqitayotgan oʻqituvchilarni, tarbiyachilarni tanimaydilar, bilmaydilar. Bolalari boʻsh vaqtlarini qayerda, kim bilan oʻtkazishidan bexabar boladilar. Baʼzan esa, oʻqituvchilarning talablari, iltimos-istaklariga ters javob beruvchi, teskarisini bajamvchi ota-onalarni ham uchratish mumkin.

Maktabga tez-tez borib turuvchi ota-onalarning faoliyati maqtovga sazovordir. Chunki oʻqituvchilar bilan boʻlgan uchrashuvlar, bolalari yuzasidan bildirgan fikrlar oʻz navbatida ota-onalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, ular bolalari qayerda, kim bilan yuradi, ularning doʻstlari kim va qanday fanlarga qiziqishlarini bilib oladilar, nazorat qilish imkoniyati ortadi. Maktabni oila bilan bogʻlovchi vosita - bu oʻquvchilardir.

Oʻquvchilar bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini taʼminlash orqali ota-onalarga taʼsir koʻrsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada maktab va oila ayoqlasini taʼminlovchi, ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa boʻlib hal etish kabilarning rolini inkor etib boʻlmaydi. Jumladan, “Bolangizning qanday oʻqishini bilasizmi?”

“Bolalarimiz odobi haqida suhbatlashaylik”, “Mustaqil hayot boʻsagʻasida” kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarni oʻz bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qaygʻurishlariga sabab boʻladi. Majlisda faol ota-onalarning ishtiroki va oʻz tajribalarini batafsil bayon etishlari koʻplab ota-onalar oldida turgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishiga olib keladi. Albatta, buning uchun oʻqituvchilar jamoalari, sinf rahbarlari majlis oʻtkazish uchun asosli tayyorgarlik koʻrishlari, qachon va qanday holda majlis oʻtkazish va undan koʻzlangan maqsad rejalarini mukammal ishlab chiqishlari, toʻplangan tajribalarni tahlil qilish, ota-onalardan kimlar soʻzga chiqishi haqida kelishib olishlari lozim. Ana shundagina majlisning tarbiyaviy samaradorligi taʼminlanadi.

Xulosa qilib aytganda oila, mahalla, maktabning tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda ijtimoiy institutlarning oʻrni muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning tarbiyaviy kamol topishida oilaning oʻrni beqiyos. Inson shaxsining shakllanishida hamda rivolanishida oila muhim roʻl oʻynaydi.

Oilaning ijtimoiy vazivalarni bajarishi bolaning jamiatda hech bir qiyinchiliklarsiz moslashishiga zamin yaratadi. Manaviy-axloqiy sifatlarning yuksak darajada rivojlanishining birdan bir kafolati bu oiladagi sog‘lom muhitdir. Xalq ta‘limida ta‘lim va tarbiyaning birligi prinsipi asosiydir. Bu prinsip asosida o‘smirlar va yoshlarni tarbiyalashda oila, maktab, mahalla hamkorligi bugunni kundagi dolzarb muammolar yechimidir. Tarbiyasi og‘ir bolalarni ijtimoiylashtirish jarayoni barchamizni sergaklikka chorlaydigan zamon talabi bo‘lib, unga burch va ma‘suliyat nuqtai nazaridan yondashish - jismonan sog‘lom, manan yetuk avlodni kamol toptirish garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Inomova N. "Oilada bolalarning ma'naviy -axloqiy tarbiyasi" T. Fan nashriyoti 1999-yil 92-bet
2. Sodiqov B. "Deviant xulq bolalar psixologiyasi" Termiz 2010-yil 59-bet.